Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL .....	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILYI MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH .....	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI .....	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI .....	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT .....	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELI .....	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES .....	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



АХОЛИНИ ИJTИМОИЙ НИМОЙА ҚИЛИШ ТИЗИМИДА СУН'ИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: О'ЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИСОЛИДА ЖОРИЙ ЕТИШ ИМКОНИАТЛАРИ ВА ХИЗМАТЛАР СИФАТИНИ ОШИРИШ MASALALARI .....	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
ОРОЛ БО'ЙИ МИНТАҚАСИДА ИҚЛИМ О'ЗГАРИШИНИНГ ИJTИМОИЙ-ИQTISODIY OQIBATLARI VA ЗАИФ АХОЛИ QATLAMLARIGA TA'SIRI .....	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР .....	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI ЖОРИЙ ЕТИШ ИМКОНИАТЛАРИ .....	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ» .....	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM ТИЗИМИДА RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ЖАРAYONLARI .....	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEХANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI.....	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENДИNI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHİYATI .....	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSİYALASHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSİYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIY MEХANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI .....	1121
Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich	
IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR ХОРИJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaoqu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА .....	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI .....	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
<b>Mu Zhendi</b>	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
<b>Z.T. Bakayev</b>	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
<b>Аблаева Валентина Борисовна</b>	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI .....	1169
<b>Saparov Murod Irgashovich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI" .....	1177
<b>Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.</b>	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	1183
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов</b>	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
<b>Zuxurova Nargiza Abdusattarovna</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
<b>Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich</b>	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....	1221
<b>Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li</b>	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
<b>Poyonov Jamshid</b>	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....	1232
<b>Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
<b>Utegenov Ilham Baxtiyarovich</b>	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) .....	1250
<b>Otabekov Javdod Nurulla o'g'li</b>	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1256
<b>Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
<b>Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI .....	1267
<b>Tabayev Azamat Zaripbayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1272
<b>Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna</b>	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH .....	1276
<b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</b>	



# EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH

**Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich**

Mamun universitet dotsenti, PhD

Email: [rasul.sadullaev1977@gmail.com](mailto:rasul.sadullaev1977@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-5812-6724

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ekologik soliqlarni hisoblash va undirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda soliq mexanizmlarining o'рни, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ekologik soliqlarni hisoblash usullari, ularni undirish mexanizmlari, iqtisodiy va ekologik samaradorlikka ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijasida takomillashtirilgan metodologik yondashuv taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** ekologik soliq, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, emissiya, metodologiya, barqaror rivojlanish, soliq siyosati.

**Abstract.** This article analyzes the methodological foundations for calculating and collecting environmental taxes. It examines the role of tax mechanisms in environmental protection, international experience, and their applicability in the context of Uzbekistan. Additionally, the scientific basis for calculating environmental taxes, their collection mechanisms, and their impact on economic and ecological efficiency is explored. The study concludes with a proposed improved methodological approach.

**Key words:** environmental tax, green economy, environment, emissions, methodology, sustainable development, tax policy.

**Аннотация.** В данной статье анализируются методологические основы расчета и сбора экологических налогов. Рассматривается роль налоговых механизмов в охране окружающей среды, международный опыт и их применимость в контексте Узбекистана. Кроме того, исследуется научная основа расчета экологических налогов, механизмов их сбора и их влияние на экономическую и экологическую эффективность. В заключение предлагается усовершенствованный методологический подход.

**Ключевые слова:** экологический налог, зеленая экономика, окружающая среда, выбросы, методология, устойчивое развитие, налоговая политика.

## KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi insoniyat oldida dolzarb muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda iqtisodiy vositalar, xususan, ekologik soliqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik soliqlar davlat tomonidan atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarni kamaytirish va ekologik muvozanatni tiklash maqsadida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ekologik siyosatni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qaror va strategiyalar yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik soliqlarni ilmiy asosda hisoblash va undirish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar — iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi — global xavf sifatida qaralmoqda. Ushbu muammolar iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga kelayotgan tashqi salbiy effektlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli davlatlar ekologik siyosatni kuchaytirish va iqtisodiy mexanizmlar orqali atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko'rmoqda.

Ekologik soliqlar ana shunday mexanizmlardan biri bo'lib, ular ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning ekologik zarar keltiruvchi faoliyatini cheklashga xizmat qiladi. Ekologik soliqlar orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki davlat budjetiga qo'shimcha daromad keltirish ham mumkin.



O'zbekiston Respublikasida ham ekologik muammolarni hal etish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash choralari ekologik soliqlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ekologik soliqlarni hisoblash va undirishning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik soliqlar nazariyasi iqtisodiyot fanida tashqi effektlar muammosini hal etish vositasi sifatida shakllangan bo'lib, uning ilmiy asoslari ilk bor ingliz iqtisodchisi Artur Sesil Pigou tomonidan ishlab chiqilgan. Pigou o'zining "The Economics of Welfare" asarida ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan salbiy tashqi ta'sirlarni kamaytirish uchun davlat tomonidan soliq mexanizmini qo'llash zarurligini asoslab bergan. Ushbu yondashuv keyinchalik "Pigou soliqlari" konsepsiyasi sifatida keng rivojlandi va ekologik soliqlar tizimining nazariy poydevorini tashkil etdi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda ekologik soliqlar barqaror rivojlanishning muhim instrumenti sifatida qaraladi. Xususan, OECD tashkilotining so'nggi hisobotlarida ekologik soliqlar iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni uyg'unlashtiruvchi samarali vosita sifatida baholanadi. OECD mamlakatlarida energiya soliqlari, karbon soliqlari va transport soliqlari orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilgan.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ekologik soliqlarni amaliyotga joriy etishda eng ilg'or modellardan biri hisoblanadi. Bu hududda ekologik soliqlar tizimi differensial yondashuv asosida shakllantirilgan bo'lib, zarar darajasi yuqori bo'lgan faoliyat turlariga nisbatan yuqori soliq stavkalari qo'llaniladi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari joriy etilgan. Natijada ko'plab Yevropa davlatlarida karbon emissiyasi darajasi sezilarli kamaygan.

Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik soliqlarni samarali qo'llash uchun faqat soliq stavkalarini belgilash yetarli emas, balki monitoring, nazorat va hisoblash tizimlarini ham takomillashtirish zarur. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida emissiyani avtomatik aniqlash va hisoblash tizimlari ekologik soliq tizimining shaffofligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy ishlarda ekologik soliqlarni differensiallashtirish va hududiy xususiyatlarni inobatga olish zarurligi ta'kidlanadi. Chunki bir xil soliq stavkasi turli hududlarda turlicha ekologik natija berishi mumkin. Shu bois, rivojlangan davlatlarda ekologik soliqlarni hisoblashda hududiy ekologik risk koeffitsiyentlari keng qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida ekologik soliqlar tizimi hali to'liq shakllanib ulgurmagani bo'lib, mavjud tadqiqotlar asosan normativ-huquqiy jihatlarni yoritishga qaratilgan. Shu sababli ekologik soliqlarni hisoblash va undirishning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ekologik soliqlarni hisoblash va undirish jarayonlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Birinchiidan, taqqoslash (komparativ) usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida rivojlangan davlatlar, xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, OECD davlatlari va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilayotgan ekologik soliq tizimlari o'rganildi. Ularning asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, O'zbekiston sharoitiga mos jihatlari ajratib olindi.

Ikkinchiidan, statistik tahlil usuli orqali ekologik soliqlar va emissiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Bu jarayonda korxonalar tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalarning hajmi, soliq tushumlari va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlil qilindi. Natijada ekologik soliqlarning iqtisodiy va ekologik samaradorligi baholandi.

Uchinchiidan, iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali ekologik soliqlarni hisoblashning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Modelda emissiya hajmi, zarar koeffitsiyenti, soliq stavkasi va hududiy ekologik risk omillari inobatga olindi. Taklif etilgan model quyidagi ko'rinishda ifodalandi:

$$S = E \times K \times T \times R$$

E – Emissiya hajmi

K – Zarar koeffitsiyenti

T – Bazaviy Stavka

R – Hududiy risk



Bu yerda soliq miqdori nafaqat emissiya hajmiga, balki uning ekologik zarar darajasiga va hududiy xususiyatlarga ham bog'liq holda aniqlanadi.

To'rtinchidan, tizimli yondashuv qo'llanilib, ekologik soliqlarni undirish jarayoni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu tizim monitoring, hisoblash, deklaratsiya, undirish va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqichning samaradorligi umumiy tizim natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ekspert baholash usuli yordamida ekologiya va soliq sohasidagi mutaxassislar fikrlari o'rganildi. Bu esa taklif etilayotgan metodologiyaning amaliy jihatdan qo'llanilish imkoniyatlarini baholashga yordam berdi.

Mazkur metodologiya ekologik soliqlarni hisoblash va undirish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ularning shaffofligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik soliqlar zamonaviy iqtisodiyotda atrof-muhitni muhofaza qilishning eng samarali iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va iste'mol jarayonida yuzaga keladigan salbiy ekologik ta'sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishdan iborat. Ekologik soliqlar nafaqat fiskal instrument, balki tartibga soluvchi mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik soliqlar iqtisodiy tizimda ikki asosiy funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni moliyaviy jihatdan qimmatlashtiradi va shu orqali korxonalarni ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga undaydi. Ikkinchidan, ushbu soliqlar orqali davlat budjetiga tushumlar shakllanib, ular ekologik muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Ekologik soliqlarning samaradorligi ularning to'g'ri hisoblanishi va adolati undirilishiga bog'liq. Agar soliq stavkalari juda past bo'lsa, ular korxonalarining xulq-atvoriga ta'sir qilmaydi. Aksincha, juda yuqori stavkalar iqtisodiy faoliyatni sekinlashtirishi mumkin. Shu bois optimal soliq siyosatini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Ekologik soliqlarni hisoblashda asosiy yondashuv zararli moddalarning emissiya hajmini aniqlash va unga mos ravishda soliq miqdorini belgilashdan iborat. Biroq, zamonaviy yondashuvlar bu jarayonni yanada murakkab va aniqroq qilishni talab etadi.

Tadqiqot doirasida ekologik soliqlarni hisoblash uchun quyidagi kengaytirilgan model taklif etildi:

$$S = E \times K \times T \times R \times D$$

S – soliq miqdori

E – emissiya hajmi (tonna yoki boshqa birliklarda)

K – zarar koeffitsiyenti (moddaning xavflilik darajasi)

T – bazaviy soliq stavkasi

R – hududiy ekologik risk koeffitsiyenti

D – texnologik daraja koeffitsiyenti

Mazkur modelning afzalligi shundaki, u nafaqat emissiya hajmini, balki uning sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga oladi. Masalan, zararli moddalarning turli xil turlari atrof-muhitga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zarar koeffitsiyenti orqali ularning xavflilik darajasi inobatga olinadi.

Hududiy koeffitsiyent esa ekologik holati yomon bo'lgan hududlarda soliq yuklamasini oshirish imkonini beradi. Bu esa hududlar kesimida ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda taklif etilgan model asosida uchta korxonalar uchun ekologik soliq hisob-kitobi keltirilgan:

1-jadval. Ekologik tahlillar jadvali

Korxonalar	Emissiya (tonna)	K	T (so'm)	R	D	Soliq (so'm)
A	120	1.3	50 000	1.2	1.1	10 296 000
B	90	1.5	50 000	1.1	1.1	7 425 000
C	70	1.2	50 000	1.0	0.9	3 780 000

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, soliq miqdori faqat emissiya hajmiga emas, balki boshqa ko'rsatkichlarga ham bog'liq holda shakllanadi. Bu esa tizimning adolati va samarali ishlashini ta'minlaydi.

Ekologik soliqlarni grafik tarzda tahlil qilganda, emissiya hajmi va soliq miqdori o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Emissiya oshgani sari soliq yuklamasi ham ortadi, bu esa korxonalarni ekologik zararli faoliyatni kamaytirishga undaydi.

Bundan tashqari, texnologik daraja koeffitsiyenti (D) yuqori bo'lgan korxonalar uchun soliq yuklamasining kamayishi innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Bu esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos keladi.



Ekologik soliqlarni undirish jarayoni murakkab tizim bo'lib, u bir necha bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich — monitoring. Bu bosqichda korxonalar tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalar hajmi aniqlanadi. Zamonaviy sharoitda bu jarayon sensorlar va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich — hisoblash. Ushbu bosqichda yig'ilgan ma'lumotlar asosida soliq miqdori aniqlanadi.

Uchinchi bosqich — deklaratsiya topshirish. Korxonalar o'z faoliyati bo'yicha hisobot taqdim etadi.

To'rtinchi bosqich — undirish. Hisoblangan soliq davlat budjetiga o'tkaziladi.

Beshinchi bosqich — nazorat va audit. Davlat organlari tomonidan to'lovlarning to'g'riligi tekshiriladi.

Ekologik soliqlar tizimini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

Birinchidan, ekologik monitoring tizimini raqamlashtirish zarur. Bu orqali emissiya ma'lumotlarini real vaqt rejimida olish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, soliq stavkalarini differensiallashtirish lozim. Zarar darajasi yuqori bo'lgan faoliyat uchun yuqori stavkalar qo'llanishi kerak.

Uchinchidan, yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari berish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, ekologik audit tizimini kuchaytirish zarur. Bu korxonalar faoliyatini nazorat qilish imkonini oshiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida ekologik soliqlarni hisoblash va undirishning takomillashtirilgan metodologiyasi ishlab chiqildi hamda uning iqtisodiy va ekologik samaradorligi kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ekologik soliqlarni an'anaviy yondashuv asosida hisoblash (faqat emissiya hajmiga asoslanib) tizimning yetarli darajada samarali ishlashini ta'minlamaydi. Chunki bunday yondashuv zararli moddalarning turli xil xavflilik darajasi, hududiy ekologik sharoit va texnologik rivojlanish darajasini inobatga olmaydi.

Taklif etilgan ko'p omilli model ( $E \times K \times T \times R \times D$ ) asosida olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, soliq yuklamasi yanada adolatli taqsimlanadi. Ya'ni, atrof-muhitga ko'proq zarar yetkazayotgan korxonalar yuqoriroq soliq to'laydi, ekologik toza texnologiyalarni joriy etgan subyektlar esa nisbatan kamroq soliq yukiga ega bo'ladi. Bu esa iqtisodiy subyektlar xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularni ekologik jihatdan mas'uliyatli faoliyat yuritishga undaydi.

Tahlillar natijasida, shuningdek, ekologik soliqlarni differensiallashtirishning muhimligi ham tasdiqlandi. Hududiy ekologik risk koeffitsiyentini qo'llash orqali ekologik jihatdan nozik hududlarda ifloslanish darajasini kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa hududlar o'rtasida ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat — texnologik koeffitsiyent (D)ning ahamiyati aniqlandi. Zamonaviy, energiya tejankor va ekologik toza texnologiyalarni qo'llayotgan korxonalar uchun soliq yukining kamaytirilishi ularni innovatsion faoliyatga rag'batlantiradi. Bu esa uzoq muddatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga ekologik zararlarni kamaytiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ekologik soliqlar tizimining samaradorligi faqatgina hisoblash modeliga emas, balki undirish mexanizmlarining shaffofligi va nazorat tizimining samaradorligiga ham bog'liq. Agar monitoring tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, hatto eng mukammal model ham amalda kutilgan natijani bermaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari ekologik soliqlarni hisoblash va undirish metodologiyasini takomillashtirish barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ekologik soliqlar nafaqat davlat budjetiga tushum manbai, balki atrof-muhitni muhofaza qilishning samarali iqtisodiy vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ekologik soliqlarni hisoblashning ko'p omilli modeli ishlab chiqildi. Ushbu model emissiya hajmi bilan bir qatorda zarar koeffitsiyenti, hududiy ekologik risk va texnologik darajani ham inobatga oladi. Bu esa soliq yuklamasining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi va iqtisodiy subyektlarni ekologik jihatdan mas'uliyatli faoliyat yuritishga undaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ekologik soliqlarni differensiallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni rag'batlantirish orqali atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar darajasini sezilarli kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, ekologik soliqlar tizimini raqamlashtirish va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish uning shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida ekologik soliqlar tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi: ekologik monitoring tizimini modernizatsiya qilish, soliq stavkalarini ilmiy asosda differensiallashtirish, ekologik audit mexanizmlarini kuchaytirish hamda yashil texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish.

Umuman olganda, ekologik soliqlarni hisoblash va undirishning ilmiy asoslangan metodologiyasini yaratish nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pigou, A.C. (1920). The Economics of Welfare. London: Macmillan, pp. 172–203.
2. OECD. (2020). Taxing Energy Use 2019: Using Taxes for Climate Action. Paris: OECD Publishing, pp. 45–78.
3. World Bank. (2022). State and Trends of Carbon Pricing 2022. Washington, DC: World Bank, pp. 23–56.
4. European Commission. (2021). Environmental Taxation Guide. Brussels, pp. 60–95.
5. Fullerton, D., Leicester, A., & Smith, S. (2010). Environmental Taxes. In: Dimensions of Tax Design. Oxford University Press, pp. 423–512.
6. Sterner, T. (2003). Policy Instruments for Environmental and Natural Resource Management. Washington, DC: RFF Press, pp. 89–134.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4574008>
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (2020). Toshkent: Adliya vazirligi nashri, 210–245-betlar.
9. UNEP. (2017). Green Economy and Trade Trends. United Nations Environment Programme, pp. 33–67.
10. World Bank Group. (2019). Fiscal Policies for Development and Climate Action. Washington, DC, pp. 70–110.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---